

«Suv – mo'jiza» tanloviga

BEBAHO NE'MAT

Suv! Bu so'zni eshitganimda, ko'z oldimda mo'jiza gavidalanadi. U borliqni yashnatadi. Biror kunimizni suvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U bo'lmasa, yeyayotgan nonimiz ham, kiyayotgan kiyimimiz ham bo'lmas edi. Axir suv bo'lmasa, bug'doy yoki paxtamiz o'sarmidi? Albatta, yo'q. Biz kabi o'simlik va hayvonot olami ham suvsiz yasholmaydi. Demak, suv – tabiatning bebaho in'omi hisoblanadi. Uni asrash barchamizning burchimizdir.

*Shahnoza USMONOVA,
Yunusobod tumanidagi*

274-maktabning 4-sinf o'quvchisi

MAKTABGA

«OSIYO» GRANTI

Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi 46-maktabning juda ko'plab o'quvchilari 1-chorakni a'lo baholarga yakunlashdi. Chunki bu maktabda kompyuter-u barcha zamonaviy o'quv laboratoriya uskunolari mavjud. Bu shart-sharoitlar «Osiyo» taraqqiyot banki tomonidan ushbu bilim maskani uchun ajratilgan 2 ming 600 dollar miqdoridagi pul mablag'i evaziga amalga oshirilibdi.

*Kamola NOSIROVA,
Namangan viloyati*

GAZETADAN MAMNUNMAN

Nima uchun, deysizmi? Chunki mening «Dono ukki» nomli ertagim va singlimga atab yozgan she'rim «Tong yulduzi»da bosilib chiqqandan buyon do'stlik maktublarining keti uzilmayapti.

Bu sevimli nashrimga 2009-yil uchun ham birinchilardan bo'lib obuna bo'ldim.

*Bashorat ABDURAIMOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog' tumani*



Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

*2008-yil
10-noyabr
N:45
(66690)*

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

BOLA HUQUQLARI – BOLALAR IJODIDA

Shu yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 60 yilligi butun dunyoda keng nishonlanadi. Ushbu sanaga yurtimizda nafaqat kattalar, balki bolajonlar ham munosib hozirlik ko'rishyapti.

Yoshlar ijod saroyida YUNISEFning yurtimizdagi vakolatxonasi, «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi hamda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan uyushtirilgan «Bola huquqlari – bolalar nigohida» nomli fotosuratlar va rasmlar ko'rgazmasi ham aynan ana shu tarixiy sanaga bag'ishlandi.

Toshkent va Samarqanddagi «Mehribonlik uy»lari tarbiyalanuvchilari, shuningdek, bir necha yosh jurnalistlarga fotosurat san'ati asoslarini o'rgatishga qaratilgan mazkur tanlovda juda ko'plab maktablardan vakillar ishtirok etishdi.

Bolajonlarning o'z haq-huquqlariga, jumladan, oilada yashashlari, ta'lim olishlari, sport bilan shug'ullanishlari, xavfsiz muhitga ega bo'lishlari, bolalar savdosi hamda nogiron bolalar huquqlariga oid ijtimoiy masalalarni aks ettiruvchi ijodiy ishlarini yig'ilganlar zo'r qiziqish bilan tomosha qilishdi.

Tanlov yakunida 1-4-sinflar miqyosida navoiylik Jasurbek Ahatov, 5-7-sinflar o'rtasida samarqandlik Feruz Subhonov hamda 8-9-sinflar o'rtasida Aziz Ochilovlar g'olib bo'lishdi.



– O'quvchilarimizning har biri sevimli nashrlari «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishmoqchi, – deydi Sirg'ali tumanidagi 300-maktab direktori Jamila opa Sindarova.

Kuni kecha ana shu bilim maskanida «Tong yulduzi» kunlari bo'lib o'tdi.

5-betga qarang

Respublikadagi tengdoshlarim hayotiga oid yangiliklardan boxabar bo'laman, sevimli adiblarimizning yangi asarlarini birinchilardan bo'lib o'qiyman, «Quvnoq tanaffus»dagi hangomalarni o'qib, vaqtimni chog' o'tkazaman

DESANGIZ,

TEZROQ «TONG YULDUZI»GA OBUNA BO'LING!

Nashr ko'rsatkichimiz: 198

DUNYOQARASHIM O'ZGARDI



Poytaxtimizning 2200 yilligi oldidan shahrimiz tumanlarida obodonlashtirish ishlari qizg'in olib borilmoqda. Maktab o'quvchilari ham bunday xayrli ishga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Haftaning har shanba, yakshanba kunlari maktabimiz o'quvchilari Yunusobod tumanidagi 4-mavzening «Navro'z» va «Adolat» mahalla hududlarida atrof-muhitni obodonlashtirish ishlarini olib borishyapti.

Yaqinda qiziq voqea bo'ldi. Katta ariq atrofini tozalayotgan bolalar qo'llarida supurgi-yu, ammo og'izlari hech gapdan bo'shamas, bema'ni qiyqiriqlari asabni buzar, o'qituvchining tanbehiga e'tibor ham berishmas edi.

Hasharga bosh bo'lib turgan tuman hokimi Q.Farmonov bolalar tomon kelib, ulardan birining qo'lidan supurgini oldi-da, ko'chani supura boshladi. Bu holdan nafaqat haligi bolalar, balki qizlar, o'qituvchilar ham uyalib, ishga kirishib ketishdi.

Bo'lgan voqeani ustozimiz Dildora opaga aytib bergan edim, ular: «Aslida tarbiyali odamlar yoshlarga qanday o'rnak bo'lmoqlikni yaxshi biladilar. Do'q-po'pisa johillikni oshiradi. Ibrat esa tarbiyaga yo'l boshlaydi», dedilar. Maktabdan uyga qaytganimda, uyimizning sarishta, toza ekanligidan xursand bo'lardim. Agar singlim o'yinchoqlarini yoyib o'tirgan bo'lsa, jahlim chiqardi. Atrof-muhit tozaligi tuman hokimining ham ko'nglini ravshan qilsa, iflosligi xafa qilishini tushunib yetdim.

Eng muhimi, mening dunyoqarashim o'zgardi. Shanbalikka bormasam ham bo'laveradi, degan o'y-xayollarimdan butunlay voz kechdim.

Gulchiroy TO'RAYEVA,
Yunusobod tumanidagi 302-maktabning
8-sinf o'quvchisi

BAXTIMIZ QOMUSI

O'zbekiston Konstitutsiyasi nafaqat mamlakatimiz, xalqimizning, balki biz kabi yoshlarning kelajagini kafolatlaydigan asosiy qonunimiz. Hammamiz bundan 16 yil muqaddam – 1992-yilning 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunini har yili keng nishonlaymiz. Bu qutlug' bayramni doimo orziqib kutamiz. Chunki uning har bir satrida bizning kelajagimiz – Vatanimiz kelajagi aniq, ravshan yozib qo'yilgan.

Konstitutsiyada davlatimiz ramzlari – Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasiga ega, o'zbek tili – davlat tili sifatida tasdiqlangan mustaqil mamlakat ekanligi qayd etilgan.

Bu asosiy Qonunda O'zbekistonimizda yashayotgan barcha fuqarolarning huquq va burchlari, majburiyatlari ham bayon etib berilgan.

Ayniqsa, Konstitutsiyaning 41-moddasi aynan biz o'quvchilarga tegishli. Unda shunday so'zlar yozilgan:

«Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidir».

Bunday g'amxo'rliklarga javoban biz faqat a'lo o'qishimiz, sevimli O'zbekistonimiz kelajagining munosib vorislari bo'lish uchun harakat qilishimiz kerak. Shundagina xalqimiz uchun, ota-onamiz uchun haqiqiy vatanparvar, munosib farzand bo'lamiz.

Nurislom RAZZOQOV,
Toshkentdagi 97-maktabning
5-«B» sinf o'quvchisi

O'RNAK QIZ

Adabiyot fanidan uy vazifasiga «Erkin mavzu» berilgan edi. O'quvchilar shoir va yozuvchilarning she'r va monologlaridan o'qib berishdi. Navbat Sayyorabonuga kelganda, u o'zi yozgan «Onajon» deb nomlangan she'rini aytganda, sinfda yana-da jonlanish bo'ldi. Uning sher'lari talab darajasida bo'lmasa-da, o'qituvchisi Zulayho opa Polvonova Sayyorabonuni maqtab qo'ydi. So'ngra, maktabda tashkil etilgan «Adabiyot» to'garagiga taklif etdi. Shu-shu u to'garakning faol a'zosiga aylandi.

– Men geografiya faniga ham qiziqaman. Shuning uchun sinf rahbarimiz – ustozimiz Tursunoy opa Isomuhamedova boshchiligidagi «Geografiya» to'garagiga ham qatnayman. Opamiz bu fanga o'z o'quvchilarini qiziqitira olganlar. Darslarimiz-u to'garagimiz juda jonli, bahsli o'tadi, – deydi poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 4-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi Sayyora Ulug'ova.

Tengdoshingizning siz kabi orzulari cheksiz, kelgusida onasi kabi shirinso'z shifokor, buvijonidek qo'li gul tikuvchi bo'lsam, deydi. Hozirdanoq barcha fanlarni puxta o'rganishga harakat qilmoqda. Shifobaxsh giyohlar haqida xohlaganingizcha savol bersangiz, sizni o'ziga jalb etib, mazza qilib javob beradi. Bu borada uni sira to'xtatolmaysiz. Uka va singillari betob bo'lib qolgudek bo'lsa, atrofida parvona.

Hammaga o'rnak, qiziquvchan, intiluvchan Sayyorabonuga kelgusida omdlar tilab qolamiz.

OLMOS

XATIM CHIQMADI, DEMANG...

Aziz bolajonlar! Orangizda mening tahririyatga yuborgan xatim bosilib chiqmadi, deb umidsizlikka tushganlar yo'qmi? Zero, har bir maktub biz uchun qadrlı. Bu hafta ichida o'zining she'r-u xabarlarini yozib yuborgan tengdoshlaringiz ham talaygina. Ulardan:

Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 5-maktabning 7-sinf o'quvchisi Matluba Omonova gazetamizning ashaddiy muxlisi ekanligi haqida yozib yuboribdi. U she'rlar ham mashq qilar ekan.

Sevara Mamatova Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 73-maktab o'quvchisi. Xatida o'qituvchilari Farida opa Naliboyeva va Zamira opa Mo'minova atab yozgan she'rini yuboribdi.

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridan Dilshoda Xolmatova yozgan xatida esa o'z shahri, qurilayotgan yangi inshootlarni faxr bilan tilga olibdi.

SAXIY KUZ

Kuzning oxirgi oyiga ham yetib keldik. Sarg'aygan barglar yerga to'kila boshladi. Quyosh nurida xazon barglar oltinday tovlana-yapti. Maktabdan qaytayotgan bolalar olma terayotgan bog'bonga yordamlashdilar. Bog'bon ularga olma berdi.

– Rahmat, bobojon, olmalar juda shirin ekan, – deyishdi ular.

Bizning kuz ana shunday saxiydir.


Dilnavoz ABDUVAHOBOVA,
Hamza tumanidagi 230-maktabning
6-«B» sinf o'quvchisi



MEHMONDO'STLIK

O'zbek xalqi azaldan mehmondo'st, odamshinavanda bo'lgan. Mehmon atoyi xudo, deya eshikdan kirib kelgan mehmonni to'rga chiqarib, unga mulozamat qilishgan.

Bolaligimizdan ota-onamiz: «Uyga mehmon kelganda, o'zingni tutishni o'rgan, kelgan mehmon seni odobsiz bola ekan, deb ketmasin», deya uqtirishadi. Biz ham «odobsiz bola» bo'lib qolmaslik uchun o'zimizni balandlamaslikka,



to'polon qilmaslikka harakat qilardik. Barcha millat aholisi mehmonnavozlikni o'zbeklardan o'rgansalar arziydi. Xalqning mehmondo'stligi uning yutug'i hisoblanadi. Boshqa millatlarda ham mehmon kutish odobi mavjud, ammo hech biri o'zbek xalqining mehmondo'stligiga yetmasa kerak.

Ruslan IBODOV



ARAZLAMAYDIGAN

Sardor uchinchi sinfda o'qiydi. To'ng'ich farzand, buvajoni va buvijonining birinchi nabirasi bo'lgani uchun rosa tantiq bo'lib o'sdi. Uning uchun hamma narsa muhayyo edi. Agar biror narsa kerak bo'lsa, sal labini bursa, bas, darrov istagani bajo bo'ladi. Hech kim mushugini pisht demaydi. Ba'zida xarxasha qilayotganda, onasi dakki berib qolsa, darrov buvijonisi joniga oro kirardi.

– Hay-hay. Yosh bolani urishmang, kelin. Kel o'zimizning oldimga. Qo'zichog'imdan aylanay. Toy bolam, boy bolam.

Singlisi Munisa tug'ildi-yu, vaziyat tubdan o'zgardi. Hammaning mehri

chaqaloqqa qaratilib, unga e'tibor kamaydi. Sardor endi qanchalik xarxasha qilmasin, qancha yer tepinmasin, hech niyatiga erisholmasdi. Ana shunday paytlarda u ukaginasini shunchalik yomon ko'rib ketardiki, asti qo'yaverasiz.

Hademay o'n yoshga to'ladigan Sardor hamon hammani o'z atrofida parvona bo'lishini xohlardi. U o'z mavqeini tiklash uchun yana bir xiyla o'ylab topdi.

Kechki ovqatga chiqmay, xonasida arazlab yotib oldi. Onasi ikki marta kirib ovqatga taklif qildi. Qayrilib ham qaramadi. Buvijonisining ovozi eshitildi:

– Hoy, toychog'im, dasturxon sizga

DUNYODA ENG BAXTLIMIZ



Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 4-umumta'lim maktabida mish-mish. Nima emish, 7-sinf o'quvchisi Dilshod Ramazonovning «Ko'ngil navolari» nomli she'riy kitobchasi chop etilibdi. Bu xushxabar zumda hammayoqqa yoyilibdi, kitobcha qo'lma-qo'l bo'lib ketibdi. Uni nafaqat maktabdoshlari, balki ustozlari ham katta qiziqish bilan o'qib chiqishibdi. Ayniqsa, she'riyat shaydosi bo'lgan buvijonisining quvonchi ichiga sig'may ketibdi.

Dilshodjonning adabiyotga, she'riyatga mehr qo'yishi bejiz emas. Otasi Hayotjon Latipov shoirtabiat inson bo'lib, bir necha she'riy to'plamlari bosmadan chiqqan. Dilshodjonning

murg'ak qalbida she'riyatga mehr uyg'otgan oiladagi ana shu muhit bo'lsa, ne ajab?!


Ayni chog'da u Shofirkondagi 1-sonli ijodiyot markazining «Na'matak» adabiy to'garagiga qatnab, badiiy ijod sirlarini mukammal o'rganishga intilyapti.

*Lafzimiz pok, ahdlimiz,
Ham g'ayratli, shahdlimiz,
Zo'r davlatli, taxtlimiz,
Dunyoda eng baxtlimiz.
Yashnar hur diyorumiz,
Alloh madadkorimiz!*

– deya go'zal va haroratli misralar bitadi yosh ijodkor. Ana shunday samimiy, betakror misrali «Bog'da», «Onajon», «Askar bo'laman», «Yillar haqida» kabi she'rlari «Buxoro oqshomi», «Vaziyat», «Tong yulduzi», «G'uncha» kabi viloyat va respublika gazeta-jurnallarida chop etilgan.

«Yangi avlod – 2008» bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichi sovrindori bo'lgan Dilshodjon ayni damda yana-da jiddiyroq, nufuzliroq sinovlarga hozirlik ko'ryapti.

Biz esa yaqin kunlarda mazkur maktabda: «Dilshodjon «Yangi avlod – 2008» festivali g'olibi bo'libdi», degan yana bir mish-mish tarqalishini kutib qolamiz.



Eng yaqin sinfdosh dugonam Dilfuza juda a'lochi, aqlli, to'g'riso'z qiz. Yana bir sinfdosh dugonam bor. Ismi Iroda, tili burro, hammani mayna qilishni xush ko'radi. Haftaning seshanba kuni edi. Qo'ng'iroq chalilib, ona tili darsi boshlandi.

O'qituvchimiz odatdagidek uyga berilgan vazifalarni tekshirishni boshladilar. Dilfuza dugonam: «Vazifa daftarimni unutilib qoldiribman», dedi juda xijolat bo'lib va ustozdan uzr so'radi. Ustozimiz uni tushundilar. Chunki har doim vazifalarni bajarib kelar edi-da.

Dars tugagach, Iroda baland ovozda Dilfuzaga piching qilib dedi:

–Yolg'onni ham qotirarkansan! Undan ko'ra, vazifani bajarmadim, desang bo'lar edi. Agar rostdan ham daftaringni unutilib qoldirgan bo'lsang, xayoling qayerda edi?! – deb miriqib kuldi. Bu gapdan keyin sinfdoshlarim beixtiyor kula boshladilar. Dilfuza juda izza bo'lib, qizarib ketdi.

Ertasiga tarix darsida qiziq bo'ldi. Ustozimiz to'satdan: – Daftar, kitobingizni parta ustiga qo'ying, tekshiraman, – deb qoldilar. Hammamiz ustozimiz aytganlarini bajardik. Iroda o'tirgan parta usti bo'sh edi. Ustozimiz: – Sen nega o'quv qurollaringni olib kelmading, darsga nima uchun tayyor emassan? – deya so'radilar. Iroda uyalib: – Ustoz, papkamni uyda unutilib qoldiribman! – deb yerga qaradi. Sinfdoshlarim kulgidan o'zlarini tiya olmadilar. Iroda birinchi marotaba mayna bo'lganini his qildi. Tanaffusda esa Dilfuzadan uzr so'radi.

Haqiqatan ham o'zgani mayna qilish yomon odat. Kimki birovn ustidan kulib dilini og'ritsa, albatta o'zi ham bir kun kuligiga qoladi.

Lolaxon ODILJONOVA

QALDIRG'OCHLAR TIMSOLIDA MEHR KO'RDIM

Qaldirg'ochlar timsolida mehr ko'rdim,
Mittigina yuragida yurt sog'inchi.
Juda olis o'lkalardan talpinadi,
O'z inidan ayrilmaslikdir o'tinchi.

Qushki shuncha mehr qo'ygan bu go'shani
Nechun sevib ardoqlamay, ayting axir.
Ona yurtdan bir zungina yiroq ketsam,
Ko'zlarimda sog'inch hissi bo'lar zohir.

Tuprog'ida o'sgan gulning yaprog'iga,
Qiyoslayman suluv qizning yanog'ini.
Hayrat bilan kuzataman kech kuzakda,
Shamollarda tushgan bargning titrog'ini.

Shaharlar ko'p bir-biridan shinam, obod,
Lek yurtimning quchog'idan ketgim kelmas.
Uning madhin ash'orlarda bitay desam,
Xavotirman, unga so'z ham, qog'oz yetmas.

Sokina BAHODIROVA, poytaxtdagi 203-maktab o'quvchisi

BO'LDI...



muntazir. Kelaqoling, oppog'im...

Sardor joyidan jilmadi. Bu yalinishlar uni xursand qilar, dadasi va buvasiyam chaqirishini kutardi. Biroq, erkaklar yo'qlashmadi. Oshxonada n palovning yoqimli isi kelib, dumog'ini qitiqlasa ham, u chidab yotdi.

Nihoyat, oshxonadagilar tarqalishdi. Hamma o'z xonasiga kirib

ketdi. Sardorning qorni tatalab ketgandi. Chiqib bir burda non olib yey desa, g'ururi yo'l qo'ymaydi. Onasi haliyam qozon-tovoq yuvayapti. Qay yuz bilan ko'rinadi. Yo'q-yo'q, chidash kerak. Hozir o'zlari yalinishadi. Chida, Sardor, chida. Eh, qaniydi hozir... U shu tobda bir qozon ovqatni paqqos tushirishga ishonardi. Mayli, yana biroz sabr qilsin-chi, balki buvijonisi kirib qolar...


Afsuski, Sardorni hech kim chaqirmadi. Alamidan va och qolganidan yig'lab yubordi. «Men bularga rostanam kerak emasga o'xshayman», deb o'yladi u. Yig'lay-yig'lay ko'zi ilingan ekan. Ochlik kuchini ko'rsatib, uyg'onib ketdi. Quloq soldi. Hammayoq jim-jit. O'rnidan turdi-da, asta eshikni ochib,

oyoq uchida oshxonaga o'tdi. Borib gaz plitasi ustidagi qozonning qopqog'ini ko'tardi. Oshning hididan mast bo'lib, shartta qo'lini qozonga urdi, barmog'iga qog'oz ilindi. «Ie, qozonning ichida qog'oz nima qiladi?» deya uni oldi-da, derazadan tushayotgan yorug'likka solib, quyidagi yozuvni o'qidi:

«O'g'lim! Yigit so'zi bitta bo'ladi. Ovqat yemayman dedingmi, yema. Mabodo yesang, ikkinchi araz qilma».

Sardor kutilmagan bu holatdan hang-mang bo'lib qolgandi. Oshni yemay desa, qorni qurg'ur qo'ymayapti, yey desa, g'urur. Xullas, aslida bu g'urur emas, tantilik ekanligini shu tobda tushunib yetgan edi. O'sha kundan boshlab u erkalka barham berdi.

Abdukarim RAHIMBERDIYEV



BUVIM KATTA TANAFFUSDA...

Mahalladagi qizlarga qiziqib, 5 yoshimdan maktabga chiqqandim. Qabul qilishmasa-da, har kuni boraverardim. Oxirgi partaga o'tirib olib, doskadagi yozuvlarni o'z bilganimcha ko'chirib o'tirardim.



– Qaragin, hamma bolalarning boshlari katta-katta. Seniki esa kichkina. Ertaga kelmagin, xo'pmi, boshing kattaroq bo'lganda, oyijoning o'zlari olib keladilar, – deya soddaroq qilib tushuntirishga intilardi ustoz.

Ularga xo'p derdim-u, ertasi kuni oyim tikib bergan xaltaga siyohdonimni solib, yana kelaverardim. Yoshim kichik bo'lgani bois, oyim papka ham olib bermaganlar, xarxasha qilaverganim uchun eski matodan xalta tikib bergan edilar.

Bir kuni tanaffusda qizlar bilan bekinmashoq o'ynadik. Maktab kutubxonasi orqasiga berkinib, nafasimni chiqarmay o'tirdim. Shu holatda qancha o'tirganimni bilmayman. Bir payt qarasam, hamma o'quvchilar uy-uylariga tarqalishyapti. Tanaffus tugab, oxirgi darsning boshlangani va tugaganidan bexabar qolibman.

Keyin bilsam, bekinmashoq o'ynagan o'rtoqlarim meni qidirishmagan ham ekan. Bu voqeadan qattiq ranjib, maktabga bormay qo'ygandim. Xaltachamni esa qo'shni qiz olib kelib bergandi.

Buvisining hikoyasini ULUG'BEK yozib oldi

MAKTABINGIZ BUNCHA YAXSHI!

Tengdoshingiz Ziyoda Muhammadjonova tahsil olayotgan Chilonzor tumanidagi 270-maktab juda chiroyli, zamonaviy ko'rinishga ega. Chunki yaqindagina qayta ta'mirlangan ekan-da! Bu o'quv maskanida tirishqoq, she'r-u qatralar yozadigan o'quvchilar ko'pligini aytmysizmi? Shuning uchun tuman miqyosida o'tkaziladigan tadbir va ko'rik-tanlovlarda ular birinchilikni qo'ldan bermay kelishmoqda. 9-«B» sinf o'quvchisi Dilxumor Sobirova yaqindagina til bayrami munosabati bilan yozgan inshosi tanlovda e'tiborga sazovor bo'lganini aytdi. Uning bu yutuqqa erishishida esa ona tili o'qituvchilari Dilorom opa Usmonova, Shoira opa Niyozova va Munavvar opa Usmonovalarning hissalarini ko'p ekan. Ayniqsa, Mahkam aka Muhsimov boshchiligidagi «Shodiyona» folklor dastasining nomi anchagina mashhur bo'lib qolibdi. «Maktabingiz buncha yaxshi», desak, o'quvchilar: «Direktorimiz yaxshi opalar-da, shuning uchun maktabimiz zo'r», deya chug'urlab ketishdi. Chindan ham Yoqutxon opa Fayziyeva bolajon, fidoyi inson ekanlar. Ular tomonidan maktabda dushanba iqtidorli bolalar bilan ishlash kuni, deb e'lon qilingan. «Yosh adabiyotshunoslar» to'garagida esa o'quvchilar ilk she'riy mashqlarini bir-birlariga o'qib berishadi. Bu she'rlar orasida hazilnamolari ham bor. Masalan, Ziyoda Muhammadjonova, Dilxumor Sobirova, Umida Musabekova, Odiljon Toyirxo'jayevlar she'r mashq qilishar ekan. Ulardan 7-«B» sinf o'quvchisi Zilola G'aniyeva singilchasining erkaliklari haqida yozibdi:



SHIRINLIKNI TUGATAR

Uyimizni to'ldirib Erta-yu kech o'ynaydi. Singilcham gapga tushsa, Go'yo bulbul sayraydi.

Xafa bo'lsak, yupatar, Goh kuldirib quvnatar. Kun bo'yi janjal qilib, Shirinlikni tugatar.

Sizning maktabingizda ham shunday she'r-u hazillarni yaxshi ko'radigan o'quvchilar ko'pmi? Bizning gazetani sevib o'qiydiganlar-chi?

SAYYORABONU

- Shahlo, «X» harfi bilan boshlanadigan qanday so'zlarni bilasan?
- Xo'rozqand.
- Yana-chi?
- Yana bitta xo'rozqand.

XANDALAR




O'qituvchi: – «Men yuvinyapman, sen yuvinyapsan, u yuvinyapti», desak, qaysi vaqtni bildiradi?

O'quvchi: – Ertalabki vaqtni...



Sinf majlisida Botir so'zga chiqdi:
– Barchamizning tug'ilgan kunlarimizni nishonlashni taklif qilaman. Tug'ilgan kuni bo'layotgan sinfdoshimizga tort va shokolad olib beramiz.
Bu taklif hammaga ma'qul kelibdi.
– Xo'sh, kimning tug'ilgan kundan boshlaymiz?
– so'radi sinf rahbari.
– Menikidan, – dedi Botir. – Ertaga-mening tug'ilgan kunim.



Xorazm viloyati, Pitnak shahridan Muzaffar OTABOYEV chizib yuborgan rasmlardagi 9 ta farqni toping.

«O'ZBEKISTON SHAHARLARI» CHAYNVORDI

- Namangan viloyatidagi shahar.
- Buxoro viloyatidagi shahar.
- Samarqand viloyatidagi shahar.
- Qoraqalpog'iston Respublikasidagi shahar.
- Islom madaniyati markazi bo'lgan shahar.
- Qashqadaryo viloyatidagi shahar.
- Andijon viloyatidagi shahar.
- Qoraqalpog'iston Respublikasidagi shahar.
- Toshkent viloyatidagi shahar.
- Xorazm viloyatidagi shahar.

1				T
2				T
3				T
4				T
5				T
6				T
7				T
8				T
9				T
10				T

Tuzuvchi: Nodirbek YO'LDOSHEV, Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 36-maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Barcha javoblar «T» harfi bilan yakunlanadi.

SALOMATLIKNING BAHOSI QANCHA?

Katta tanaffus. Uni kim qanday o'tkazadi? Ko'pchilik tengdoshlarimiz uy vazifalarini takrorlab, navbatdagi darsga hozirlik ko'rishsa, ayrimlar kompyuter xonalaridan beri kelishmaydi.
O'ramizda tanaffusga qo'ng'iroq ovozi yangrashi bilan maktab atrofidagi panapastqam joylarga oshiqadiganlar ham uchrab turadi. Bunday joylarda to'p-to'p bo'lib turgan bolalarga sizning ham ko'zingiz tushgandir? Ularning nima bilan mashg'ul bo'lishlarini ham bilsangiz kerak-a?
Yaqinda Kamol ismli bir do'stim bilan gaplashib turgandim. Kutilmaganda cho'ntagidan sigaret olib tutatmoqchi

bo'ldi. Avvaliga hazillashayapti, deb o'yladim. Qarasam, niyati jiddiy. Qo'lidan sigaretani tortib olib, burdalab tashladim.
– Jinnimisan, buning necha pul turishini bilasanmi? Dadamning qimmat sigaretlaridan olgandim, – deya xafa bo'ldi astoydil.
– Sening salomatligingdan ham qimmatroq turadimi? – dedim jahl bilan. Keyin bu zahriqotil haqida bilganlarimni gapirib berdim.
Bebaho salomatligimizni bolalikdanoq asraylik, aziz tengdoshlar!



Qamariddin SHAYXOV

JAVOHIRLAR SANDIG'I

Bu qanday sandiq ekan, deb o'ylanib qoldingizmi? 300-maktabning iqtidorli o'quvchilari «Tong yulduzi» gazetasini ana shunday ta'rifladilar. 6-«D» sinf o'quvchisi Go'zal Siddiqova yod olgan she'rini o'qib ko'ring-a:

*«Tong yulduzi» erur yaqin sirdoshim,
Bo'y cho'zadi u gullagan makonda.
Menga hamroh, qadrdon suhbatdoshim
Javohirlar berib turar har onda.*

She'r sizga yoqqan bo'lsa kerak?! Agarda «Tong yulduzi» gazetasi hamda «G'uncha» va «Gulxan» jurnallari ijodkorlari bilan bo'lib o'tgan bu uchrashuvda bo'lganingizda, bundan ham ajoyib she'r-u qo'shiqlar, sahna ko'rinishlarining guvohi bo'lar edingiz. Maktab o'quvchilarining «Tong yulduzi» haqida bilmagan ma'lumotlari yo'q ekan. Ular hattoki gazeta birinchi marta 1929-yilda Samarqandda chop etilganini ham bilib olibdilar.

JONLANTIRILGAN RUKNLAR

Gazeta sahifasida chop etilgan «Bir kunini yo'qotgan bola» hikoyasini o'qigan o'quvchilar uni qoyillatib sahnalashtirishga ulgurishibdi. Bu sahna ko'rinishida Omonboyning otasi rolini ijro etgan 4-«B» sinf o'quvchisi Avaz Abduhamidovning aytishicha, Omonboyga o'xshagan quloqsiz bolalar shu ko'yga tushishadi. Sarguzasht yakunini bilishni istasangiz, javoningizdagi gazetani varaqlab ko'ring. Yana bir sahna ko'rinishini ijro etgan 8-«G» sinf o'quvchisi Temur Sobirov va 6-«K» sinf o'quvchisi Zafar Qutlimurodovlarning mahoratlarini ko'rib hayratlanasiz.



Shundan so'ng, o'quvchilar tomonidan jonlantirilgan «Bu ajib dunyo», «Kulgu bekati», «Cho'qqilarga talpinganlar», «Har sohadan bir shingil» ruknlari qo'l ushlaganicha sahnada paydo bo'lishdi. Ular «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarini qiziqib o'qiganliklari uchun delfinlar faqat bir ko'zini yumib uxlashlarini ham bilib olishibdi.


ILMNING MING DARVOZASI

Bilag'on, hozirjavob, iqtidorli bu o'quvchilarning ustozlari ham tahsinga loyiq ekan. Maktab rahbari Jamila opa Sindarovaning aytishlaricha, bu maskanda o'z kasbini sevmaydigan ustozning o'zi yo'q. Sanobar Olimova, Nodira Sadriddinova, Marhabo Ziyovuddinova, Dilorom Haydarova, Munira Yusupova kabi fidoyi muallimlar shular jumlasidandir. 9-«G» sinf o'quvchisi Go'zal Abdurahimova va Mohina Muzaffarovalarning aytishlaricha, ular a'zo bo'lgan «Iste'dodli yoshlar», «Yosh muxbirlar» to'garaklari ham



ustozlari tufayli tashkil etilgan. Bu to'garaklarda Dilorom opa Haydarova yosh qalamkashlarga saboq bermoqdalar. Tadbir so'nggida ijodkor o'qituvchilardan biri Marhabo opa Xolboyeva esa «Tong yulduzi»ga atalgan she'rlarini taqdim etdilar:

*O'rgatding sen ajdodlarim merosini,
Temur bobom yurgan cho'l-u sahrosini.
Ochilganda ilmning ming darvozasi,
Xizmatim bor bunda sening – «Tong yulduzi»!*



Bu maktab o'quvchilariga havasingiz kelgan bo'lsa, «Tong yulduzi»ni o'z maktabingizda kuting. Biz albatta boramiz!

Gulyuz ORIFJONOVA,
Sayyora JO'RAYEVA

«KATTA BOBO» BEKATI

Aziz bolajonlar!

Keling, bugun bekatda biroz dam olib, kitob haqida suhbatlashaylik. Zero, kitobga oshno bo'lgan har inson umr yo'lidan adashmaydi, undan olgan bilimlari esa ezgulikka yetaklaydi.

Rivoyat qilishlaricha, bir bechorahol odamga madad ko'rsatish maqsadida unga «Tila tilagingni», deyishibdi. Shunda u o'ylab ham o'tirmay: «Menga kitob beringlar», debdi. Bunday javobdan biroz t a a j j u b g a tushgan saxiy, mardlar yana so'z qotishibdi:

– Nega senga faqat kitob zarur, axir oltin so'rasang bo'lmaydimi? – deb uni ahdidan qaytarmoqchi bo'lishibdi.

– Oltinni nima qilaman, uni sarflasam, bir kun albatta tugaydi. Kitobdan olgan bilim esa hech qachon ado bo'lmaydi. Agar kitob o'qisam, aqlim teranlashadi, shunda o'z yo'limni topa olaman, – deya javob bergan ekan.

Ha, aziz o'g'il-qizlarim, kitob bilan do'stlashgan odamning har doim oshig'i olchi. U bilmaganlarini kitobdan o'rganadi. Unga mehr qo'ysa, yaxshidan yomonni ajrata oladi, oq-qorani taniydi. Shu asnoda komil inson bo'lib yetishadi. Bilimli odam hech qachon birovga mute bo'lib qolmaydi. Qolaversa, o'zgalarga ham yordam qo'lini cho'zishi mumkin.


Balki orangizda «Har kuni maktabga boramiz, qanchadan-qancha darsliklarni o'qib bilim olamiz, shuning o'zi kifoya emasmi», degan fikrga boruvchilar ham topilsa, ajab emas.

Ha, to'g'ri! Bugungi kunda ajoyib darsliklar yaratilgan. Ulardan zarur bilimni olish mumkin. Ammo gap boshqa yoqda. Jami muammo badiiy adabiyot o'qishda.

Nadomatlar bo'lsinki, ayrim tengdoshlaringiz badiiy asarlar o'qishni kanda qilib, katta xatoga yo'l qo'yishganini o'z vaqtida anglab yetishmayapti. Faqat darsliklar bilan qanoatlanib, badiiy kitoblarni o'qishga vaqt topishmagani achinarli holdir. Zero, shuni unitmangki, badiiy adabiyotsiz hayotni bilib bo'lmaydi. U bilan olamni o'rganamiz, o'zimizga tashqaridan nazar tashlaymiz. Qolaversa, faqat badiiy adabiyot sizni har tomonlama barkamol bo'lib yetishishingizga imkon yaratadi.

Ochig'ini aytsam, ayrim bolajonlarim bugungi kunda ko'p vaqtini kompyuter o'ynash bilan o'tkazishmoqda. Kitob o'qishdan ko'ra, har xil o'yinlarga ruju qo'yib, kompyuterning sehirli olamiga chuqurroq kirib borishyapti. Boz ustiga, orangizda ertadan kechgacha oynayi jahondan ko'zini uzmaydiganlar ham topiladi. Albatta, bu holni butunlay qoralab bo'lmaydi. Kompyuterni ham mukammal bilish kerak. Usiz taraqqiyot yo'q. Ammo hamma narsaning me'yori bo'lgani ma'qul. Kompyuterda uzoq o'tirish sog'liqqa zarar ekanligini zinhor-bazinhor esdan chiqarmang.

Nimasini ayta, badiiy kitob hech kimga hech qachon zarar keltirmagan va keltirmaydi ham. Aksincha, uni qancha ko'p o'qisangiz, shuncha aqlingiz teranlashadi, dunyoqarashingiz boyiydi. Shu bois, kitob o'qishdan o'zingizni aslo tiymang. Aziz bolajonlar, bu gaplarimni qulog'ingizga quyib oling. Bildirilgan fikrlarga aslo befarq bo'lmang. Zero, kitob – beminat ustoz.




TO'PORI INSON, TOPQIR SHOIR EDI

2000-yilning may oyida Tolib akadan o'zi to'g'risida mufassal ma'lumot yozib berishini iltimos qilgan edim. Oradan bir hafta o'tgach uchrashdik va u kishi «O'zim haqimda» sarlavhali ikki sahifadan iborat maqolani qo'limga tutqazdi. Biz uni keyinroq «O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi»ning birinchi jildiga, she'rlariga ilova qilib kiritdik.

Oradan ko'p o'tmay Tolib aka ishxonamga keldi. Birga tushlik qildik, yo'l-yo'lakay u kishi odatiga ko'ra, nashriyotda ishlayotgan tanish qizlarga qurut, magiz ulashdi. Shu mahal shoir Sulton Jabbor uchrab qoldi. So'rashib bo'lishgach, ustoz:

- Tursunboy, biz Sulton bilan hamqishloqmiz, - deb qoldi.
- Qo'ysangizchi, tunov kungi tarjimayi holingizda 1919-yilda Toshkentning Hovuzbog' mahallasida tug'ilganman, deb yozgansiz-ku!...
- To'g'ri, ammo otam Chustning Olmos qishlog'idan bo'ladi. Dehqonchilik yumishlari bilan shu tomonlarda qo'nim topgan.

Tolib aka bilan ustozim Quدرات Hikmat 1960-yilning avgust oylarida tanishtirgan. U paytlarda har ikkovlari Chilonzor tumanida qo'shni turishardi. Ikkinchi marta u kishi bilan 1962-yilda Abduvohid Mullamuhammedovning xonadonida gurunglashgandik. Toshkentga xizmatga kelganimdan so'ng, tez-tez uchrashib



turadigan bo'ldik. Taqdir taqozosi bilan Tolib akaning «Boboyong'oq» deb nomlangan kitobiga muharrirlik qilishimga to'g'ri kelgan. O'shanda u kishining topqir shoir, bilimdon inson ekanligiga tan berganman.

Tolib akadagi so'zamonlik, topqirlik, mashrabona suhbatlar faqat u kishining o'ziga juda yarashadi. Oshiqcha dahmazalarga xushi yo'q edi. Biror narsa ilinjida pataki-paytava bo'lishni sira yoqtirmasdi. Ammo bolalarga she'r yozishda zamondoshlari orasida yuksak o'rinda turganligini aytib o'tmasam, insofdan bo'lmas.

Ular menga Quدرات Hikmatdan keyin eng yaqin og'alarimdan bo'lib qolgandi. Tez-tez suhbatlashib turganimiz uchunmi, kunlarning birida ustozga bag'ishlangan Tolib akaning uslubida quyidagi hazil she'rim «O'zbekiston adabiyoti va sa'nati» gazetasida bosilib chiqdi:

- Sakson yoshli, baroq qoshli
- Tolib akam
- She'r bobida baxshiyona
- G'olib akam.
- Suhbat qurar bozordan ham
- Qolib akam
- Musallasdan qittay-qittay
- Olib akam.
- G'azal o'qib Shoh Mashrabdan
- Yonib akam
- O'ta dilkash, o'tirmaydi
- Nolib akam.
- Shapkasini qiyshaytirib
- Xayrlashar
- Shogirtlarin suhbatiga
- Qonib akam...

*Ustozni xafa
qilib qo'yamadimkan,
degan istihola bilan ko'pga
qadar u kishiga ko'rinmay
yurdim. Shu orada Sulton Jabbor
qo'ng'iroq qilib, Tolib akaning
tobi qochib qolganligini aytib qoldi.
Birgalashib Yunusobodagi uylariga
borib, u kishini ziyorat qildik.
Xayriyat, ko'ngillariga olmabdi.
Qaytaga, okosi, o'zlariga ham
javob yozib qo'ydik, deb bir
vara qog'ozni qo'limga
tutqazdi.*

Sakson uchni qoraladim,
Yolg'oni yo'q.
Qoshim pahmoq, sochim esa
Qolgani yo'q.
Boradigan so'nggi manzil,
Azal tayin.
Kuyib, yonib o'tarkansan
Shag'amdayin.
Yoshlik guldin tayyorlangan
Sharob ekan.
Qariganda qilgan ishing
Xarob ekan.
Ota yurtim Chust shahrining
Olmosidan.
O'rgilsam oz, anoridan
Olmasidan.
Qirg'iz ukam, yolg'iz boshing
Toshdan bo'lsin.
Martabang ham Olatog'dan
Oshgan bo'lsin.

O'sha kuni Tolib aka bizni kuzatar ekan, shoshma, senlarga Olmos soydan olib kelgan sovg'amni ko'rsataman, deb deraza raxiga osib qo'yilgan bo'z xaltani ochib, okosi, ota yurtning soylaridan terib kelgan bu qayroq toshlar mening uchun oltindan ham qimmat, deb ikkovimizga bittadan qayroq tosh sovg'a qildi.

Oradan bir yil o'tib, 2002-yili Tolib aka olamdan o'tdi. Bir-biridan quvnoq va puxta she'rlari, bolalar adabiyotiga qo'shgan ulkan mehnati hisobga olinib, «El-yurt hurmati uchun» ordeni bilan taqdirlangan.

Tursunboy ADASHBOYEV

«YERDAGI QUYOSH» QO'SHIQLARI

Yurt mustaqilligi bolalar ijodkorlariga yangicha yozish, yangicha mushohada yuritish, adabiyot maydonida keng quloq yozish, o'z o'rini topish baxti va imkonini berdi. Kichkintoylarga ajoyib asarlar yozib kelayotgan shoirlarimizdan biri xorazmlik ijodkor, iste'dodli shoir Rustam Nazardir.

Rustam Nazar 1949-yilda Hazorasp tumani, O'taliq qishlog'ida tug'ilgan. Respublika rus tili va adabiyoti institutida tahsil olgan. Shoirning shu kungacha «Yashasin quyoshli kun», «Rangli fovvora», «Mo'jizaga», «Yerdagi quyosh» (saylanma) kabi kitoblari chop etilgan. Hozirda «Hazoraspnoma» gazetasida xizmat qilmoqda.

Shoir she'rlarining o'ziga xos jihati hikmatga boyligi, ortiqcha so'zdan holiligi, mavzuning ishonarli yoritishidir. Ijodkorning aksariyat she'rlari serqatlam ma'noga ega. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, ularni o'qigan katta yoshdagi o'quvchilar o'zlarini ulg'ayib qolgandek his qiladilar.

Shoir so'zga nihoyatda chuqur hurmat bilan yondashadi. Shuning

uchun ham uning bunday chorak asr muqaddam yaratgan she'ri bilan eng so'nggi she'ri o'rtasida mahorat borasida farqni sezmaydiz. O'sha eski mashq ham hozirgina tandirdan uzilgan non singari e'tiboringizga tushadi, mehringizni qozonadi.

Shoir she'rlariga ko'z yugurtirib, uning ko'ngli ... oy shu'lalari kabi inja va nozik tebranishlarga boy ekanini payqaysiz. Rustam Nazar hayotning aynan ko'rinishlaridan tortib, insoniyatga dahldor katta muammolarigacha bola tilidan sodda, ravon satrlar bitadi. Bu satrlar samimiyligi bilan she'rga oshufta qalblardan mustahkam o'rin oladi. Shoir o'zi yozganidek, oz (biz ta'kidlaganimizdek, soz) yozadi. Buni quyida berilayotgan she'rlardan ham payqash mumkin.

60 yosh sari qadam qo'yayotgan sevimli ijodkorimizga 6 yashar bolakay hayratini, 16 yashar o'smir muhabbatini, 26 yashar yigit his-tuyg'usi, nigohini tilab qolaman.

Abdurahmon AKBAR

Rustam NAZAR KIM KATTA?

Kapalak tug'ildi
Bulutli kunda.
Ertasiga quyosh
Sochdi nur.
Quyoshga maqtandi
Kapalak shunda:
- Men sendan kattaman!-
Deb mag'rur.

QO'RQOQ FASL

Daraxtlarning ra'yiga
Qaramaydi sira kuz -
Hammasiga rang chaplar,
Berar bir xil sariq tus.
Lekin ko'm-ko'k archani
Chetlab o'tar naridan.
Jur'at etmas bo'yashga,
Qo'rqrar... ignalaridan!

HUR VATANNING BOLALARIMIZ



Yoshlik tuyg'ulari go'zal tuyg'ular,
Yetaklar bizlarni nurli tomonga.
Yurakda tug'ilar go'zal orzular,
Hamisha yoshlikni sevgan insonga.

Mustaqil hur yurtning bolalarimiz,
Asali, shirini, lolalarimiz.

Tug'ildik yuz ochgan chechaklar kabi,
Chaqmoqli, bo'ronli yillardan keyin.
Odamlar yuzidan tashvish, alamni,
Anglamoq biz uchun bo'lmadi qiyin.

Mustaqil hur yurtning bolalarimiz,
Asali, shirini, lolalarimiz.

O'zingni yo'qotmay kelding, ey xalqim,
Ko'rsangda qanchalar xo'rlik, judolar.
Istiqlol quyoshi chiqqanda balqib,
Yangradi qalbingda ko'hna nidolar.

Mustaqil hur yurtning bolalarimiz,
Asali, shirini, lolalarimiz.

Millatga sadoqat Temur bobomdan,
Merodir bizlarga qonimizdandir.
Haq yo'lda tashlaymiz dadil qadamlar,
Bobolar o'giti jonimizdadir.

Mustaqil hur yurtning bolalarimiz,
Asali, shirini, lolalarimiz.

Yoshlik tuyg'ulari go'zal tuyg'ular,
Yetaklar bizlarni nurli tomonga.
Yurakda tug'ilar go'zal orzular,
Hamisha yoshlikni sevgan insonga.

Mustaqil hur yurtning bolalarimiz,
Asali, shirini, lolalarimiz.

Hamidullo ISMAT

CHINORIM OTAM




Qiblagohim, buzrukvorim, duogo'y otam,
Purma'noli duolari qo'llaydi bizni.
«Farzandlarim o'nta bo'lsa, o'rni boshqa», deb
Birdek suyub ardoqlaydi biz o'g'il-qizni.

Oilamiz karvoniga bosh bo'lgan sarbon,
To'qson yoshni zabt etsa-da, shijoati bor.
Farzandlarin kamolidan ko'ksi tog' bo'lib,
Viqor ila ko'kka qarab bo'y cho'zgan chinor.


Arzir qancha faxr aylasam, iftixor etsam,
Sizsiz mening suyanch tog'im, qatorda norim.
Keksayganda hamroh bo'lgan mard pahlavonim,
Tuzingizni oqlay olsam - shu iftixorim!

Karima SHAYXOVA,
Toshkent bank kolleji o'qituvchisi

Qaysi buklamadan quti yasasa bo'ladi?



Qatorni to'ldiring.



Savollar:

1. Samo.
2. Non ushog'i.
3. Bayram shirinligi.
4. Suv jonivori.
5. Juft son.
6. Biroq.

Tuzuvchi: Dilnoza EGAMBERDIYEVA

F ₁	U ₂	T ₃	B ₄	O ₅	L ₆




Bolalarning a'lo o'qishiga har bir mamlakatda alohida e'tibor bilan qaraladi.



Buyuk Britaniyada bu borada yangi bir uslub amalga oshirilmoqda. Ingliz hukumatining yangi dasturiga ko'ra, yil oxiriga qadar Britaniyadagi barcha maktablar 30 ming funt sterling (60 ming dollar) miqdoridagi mablag' bilan ta'minlanadi. Bu mablag'lar o'qish va xulqda eng ibratli o'quvchilarga maosh sifatida to'lanadi.

Dunyodagi eng katta va yoshi ulug' daraxtning bo'yi 84 metr bo'lib, u Kaliforniyadagi «General Sherman» bog'idan joy olgan. Aslida keng o'rmonzor hududida o'sgan gigant daraxtga «General Sherman» nomi berilib, shu joy bog'ga aylantirilgan. Sherman Amerikadagi fuqarolar urushida qahramonlik ko'rsatgan harbiylardan biri. Uning nomi bilan ataluvchi bog'dagi bu daraxtning yoshi 2 ming yilga teng deyishmoqda.



Meksikaning Oaxani shahri yaqinidagi «Don Montesuma» daraxtining quyuq shox-shabballari bilan aylanasi 58 metrni tashkil etadi.



BUGUNNING



«YANGI AVLOD»LARI

Tanishig: Zuhra Yoqubboyeva 15 yoshda. U Andijon shahridagi 2-o'rtta ta'lim maktabining 9-sinfida tahsil olmoqda. Zuhraxon uchun 2007-yil unutilmas yil bo'ldi, u «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivalining «V» guruh estrada yo'nalishi g'olibasi bo'ldi. Zuhraxon o'zi tahsil olayotgan maktabning a'lochisi. U bolaligidan qo'shiq aytishga qiziqadi, uni san'atga bo'lgan qiziqishi «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalida qatnashish yutug'ini berdi. «Festivaldagi g'olibligim menga juda ko'p imkoniyatlarni hadya etadi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Eng quvonarlisi, men xalqimizning sevimli san'atkori «Shahzod» guruhi xonandasi Rashid Xoliqov bilan bir sahnada qo'shiq ijro etganimdan baxtiyorman», dedi u. Zuhra dalv burji ostida tug'ilgan. Yangi yil bayramini oila davrasida nishonlashni xush ko'radi. Kitob mutolaa qilish, sevimli san'atkorlari ijrosidagi qo'shiqlarni tinglashni yoqtiradi. Zuhra kelajakda o'z kasbining mohir ustasi bo'lish istagida. Biz iste'dodli tengdoshingizga omad tilaymiz.

Nazokatxon va Nafosatxon TOJIBOYEVA

Shifokor maslahati

JIGARINGIZNI ASRANG

Bizning organizmimizda jigarining roli muhimdir. Jigar tanamizdagi eng katta a'zo. Bu a'zoga ham venoz, ham arterial qon quyuladi.

Jigar ishtirokisiz organizmda moddalar almashinuvi bajarilmaydi – oqsillar, yog'lar, uglevodlar, fermentlar, garmonlar, pigmentlarning modda almashinuvi jigar bilan bog'liq. Shuning uchun jigarga inson organizmining katta malikasi, deb nom berishgan.

Jigar qovurg'aning o'ng tomonida joylashgan bo'lib, paypaslaganda qo'lga ilinadi. U qattiq, elastik bo'ladi. Unga birkirtilgan holatda o't pufagi joylashgan.

Bundan tashqari, jigar tanadagi eng katta qon zaxirasi bo'lib, unda odam qonining 20-25 foizi shu yerda yig'iladi va keyinchalik hamma tanaga ozuqa sifatida yuboriladi: mushaklar, to'qimalar, paylarga. Jigarda vitaminlar A.V.S.K.RR tashkil topib, xolesterin bilan birga tarqaladi. Shuning uchun jigarni tanadagi biokimyoviy laboratoriya deb atashadi. Shu bilan birga, organizmga tushadigan zaharli moddalar, toksinlar jigar orqali zararlantiriladi va chiqarib tashlanadi.

Jigarni asrash g'oyat muhimdir. Uning uchun hamisha ovqatlanish rejimiga rioya qilish, poliz mahsulotlarini (qovoq, olma, makkajo'xori, tarvuz) doimiy ravishda iste'mol qilish lozim.

Tohir IBROHIMOV, oliy toifali shifokor, terapevt

BIR O'YINDA IKKI GOL

Sirojiddin Rasulov 10 yoshda. Qashqadaryoda tug'ilgan. Hozir poytaxtda yashaydi. «Paxtakor» futbol akademiyasida tahsil oladi. Murabbiyi Lenur Yeremeyev. Jamoaning hujumchisi. Uni maydonni yaxshi ko'ra oladigan bola deyishadi. Raqiblaridan to'pni olib qo'yishga usta. Ammo sheriklariga to'pni o'z vaqtida oshirmagani uchun murabbiydan dakki eshitgani-eshitgan. To'pni o'zida ushlab turish bo'yicha rekord o'rnatgan. Musobaqaning ko'p vaziyatlarida gol muallifiga aylangan. Orzusi kelajakda zo'r futbolchi bo'lish.

Futbol o'g'il bolalar o'yini. Bu o'yinni chiniqqanlarga chiqargan. O'yin zavqi juda maroqli. Goh quvontiradi, gohida esa yum-yum yig'latadi. Sirojiddin kichik jussali, qop-qora bola. Xuddi Ronaldoning o'zginasi. Bizning kichik futbolchimiz, qarangki, yakshanba kungi musobaqalarning birida rosa quvondi. Ha, darvoqe, maydondagi tezkor harakatini yaxshi bilgan murabbiy uni «Jayzer» deb chaqiradi. Jamoada Jayzer nomi bilan mashhur bu bolakay chindan ham maydonda xuddi qush misoli uchadi. Yengil harakati va chaqqonligi bois, muxlis-u ota-onalar orasida ham taniqli. Ayniqsa, bir o'yindagi ikki goli uni pillapoyaga olib chiqdi. Futbol maktabidagi besh yillik bilimi mustahkamlanayotganidan darak bu. Jayzerning murabbiyi unga jamoaning hujum chizig'ini ishonib topshirgan. Hujumchi Jayzer bizga qo'shaloq gol urganligini gapirib bersin-chi:




Rassom: Rustam NAZAROV

– Har yakshanba kuni jamoamiz uchun hayajonli boshlanadi. Biz bu yilgi shahar chempionatida ham muvaffaqiyatli qatnash-yapmiz. Hozircha uchinchi o'rinni egallab turgandik. Chilonzordagi tengdoshlarimiz bilan uchrashuvimizdagi ikki golum jamoamizni bir pog'onaga ko'tardi. O'yin boshida hisob ochilmadi. Ikkinchi taymda esa omad jamoamiz tomonida bo'ldi. Mening ketma-ket golimdan so'ng, hujumchi o'rtog'im Shohruh ham raqiblar darvozasiga bitta to'p kiritdi. Natijada 3:0 g'alaba bilan g'oliblikka erishdik. Birdan ikki gol... Bilmadim, bu onamning duolari ijobatimikan... Bu onamning tug'ilgan kuniga atalgan bebaho sovg'a edi.

Bunday yutuqqa erishishimda jamoadoshlarimga rahmat. Shu kungi o'yinda Aziz, Shohruh, Sardorlar ham alohida maqtovga loyiq bo'ldilar.

Kelasi yakshanba yana hayajonga to'la kun. Chunki chempionatning ikkinchi bosqichi uchun raqib jamoa «Bunyodkor»dagi tengdoshlarimiz bilan maydonga tushamiz. Futbolga qiziqqan tengdosh do'stlarimizni «Paxtakor» maydonida bo'lib o'tadigan uchrashuvimizga taklif qilamiz.



ishtirok etaman. Shuning o'zi men uchun katta baxt.

TA'TILDAGI QUVONCHIM

Gulsanam sportchi qizaloq. U Sobir Rahimov tumanidagi 23-sport maktabining o'quvchisi. Ta'til boshlandi-yu, baribir mashg'ulot tugagani yo'q.

Murabbiy Luiza opasi bilan birgalikda xalqaro turnirga tayyorgarlik ko'rayotgan Gulsanam Yo'ldosheva shunday deydi:

– Yoshim 11da. Murabbiyning aytishlaricha, «Suv parisi» xalqaro turniri shahrimizda bo'lib o'tar ekan. Unda ko'p davlatlardan sportchi qizlar qatnashadi. Men esa eng kichik qatnashchi bo'lib

DO'SIMBETOV SHOGIRDLARI

Kurashchilarimiz safarga ketishyapti. Turkiyaning Istanbul shahriga. U yerda o'tadigan jahon chempionati 12 nafar sportchimizni maydonda sinaydi. Dunyoning 60 dan ortiq davlati polvonlari ishtirok etadigan nufuzli bellashuvda umidli o'smir polvonlarimizdan Yahyo Imomov bilan safar oldidan suhbatlashdik:

– Men Respublika olimpiya zahiralar kolleji talabasiman. Bir necha bor o'smirlar va kattalar o'rtasidagi Respublika chempionatlarida turnir g'olibi bo'lganman. Hozirda murabbiylar Murod Do'simbetov, Olimjon Hayitov, Olimjon Ravshanov, Azamat Boyqulov va Omon Taymurodov mashg'ulotlarida toblandik. Nasib qilsa, tez kunda bo'ladigan chempionatdan ham umidimiz katta.




Ma'mura MADRAHIMOVA

FOTOSURATLAR TANLOVIGA



Osmonida, qo'lida yulduz, Farizaga havas qilar kuz.



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi:
Sayyora JO'RAYEVA

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Adadi - 21075
Buyurtma N: J 6295